

XALQARO XUSUSIY HUQUQDA NIKOH SHARTNOMASI

Nusratova Nodirabegim Mirobid qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xalqaro xususiy huquqda nikoh shartnomasining huquqiy tabiati, tarixiy rivojlanishi va zamonaviy amaliyoti keng yoritilgan. Shuningdek, chet el elementi bilan murakkablashgan oila munosabatlarida nikoh shartnomasining ahamiyati, turli mamlakatlarda ushbu huquq sohasi qanday tartibga solish masalalari, xalqaro konvensiyalar normalari va O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Maqolada nikoh shartnomasini tuzish, amalga oshirish hamda bekor qilish masalalari va xususiyatlari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *nikoh shartnomasi, Gaaga konvensiyasi, nikoh shartnomasi mazmuni, lex voluntatis, cum manu mariti, sine manu mariti, prenuptial agreement postnuptial agreement, kollizion normalar, Minsk konvensiyasi, Kishenev konvensiyasi.*

Zamonaviy globallashuv sharoitida turli davlatlar fuqarolari o'rtasida nikoh munosabatlarining kengayishi nikoh shartnomasi institutiga xalqaro xususiy huquq nuqtai nazaridan yangicha yondashuvni talab etmoqda. Chet el elementi mavjud bo'lgan nikoh munosabatlarida er-xotinning mulkiy huquqlari va majburiyatlarini tartibga solishda nikoh shartnomasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday holatlarda qaysi davlat qonunchiligni qo'llash hamda mulk masalalarini qanday hal qilish muammolari yuzaga chiqadi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 1998-yilda qabul qilinishi bilan nikoh shartnomasi instituti milliy qonunchilikka joriy etildi. Biroq, chet el elementi mavjud nikoh munosabatlarida nikoh shartnomasi bilan bog'liq bir qator nazariy va amaliy muammolar hal etilmagan holda qolmoqda. Ushbu mavzuning tadqiq qilinishiga yana bir sabab bugungi kunda O'zbekiston fuqarolari bilan chet el fuqarolari o'rtasida nikoh munosabatlarining tobora kengayib bormoqda, statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda 1810 nafar shu kabi nokohlar qayd etilgan.¹

Nikoh shartnomasi instituti tarixiy jihatdan turli huquqiy tizim va madaniyatlarda turlicha shakllanib kelgan. Qadimgi Mesopotamiyada, Xammurapi qonunlarining 128-paragrafida nikoh shartnomasi haqida eslatmalar mavjud edi, unga asosan, "agar biror kishi xotin olsa va u bilan shartnoma tuzmagan bo'lsa, bu ayol uning xotini emas".² Qadimgi Rimda nikoh shartnomasi er hokimiyatidan iborat nikoh (cum manu mariti) va er hokimiyatisiz nikoh (sine manu mariti) shakllarida mavjud bo'lgan.³ Birinchi holda xotin erga to'la bo'ysungan va uning barcha mulki erga o'tgan. Ikkinchi shaklda esa er-xotinning mulki alohida bo'lib, nikoh shartnomasi orqali tartibga solingan. Zamonaviy huquqiy tizimlarda nikoh shartnomasi instituti XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida shakllana boshladi. Eng avvalo, bu Fransiya va Germaniyada ro'y berdi. Fransiyada 1804-

¹ <https://oyina.uz/uz/posts/23525>

² <https://avalon.law.yale.edu/ancient/hamframe.asp>

³ Andrew T. Bierkan, Charles P. Sherman, Emile Stocquart, Jur. The Yale Law Journal, Vol. 16, No. 5 (Mar., 1907), pp. 303-327

yilda qabul qilingan kodeksning 1394-moddasi⁴ nikoh shartnomasi to'g'risida bo'lib, unga asosan, nikoh shartnomasi notarius huzurida tuzilishi va u nikoh to'g'risidagi guvohnomaga qayd etilishi lozim.

Shu o'rinda, nikoh shartnomasi tushunchasiga O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 29-moddasiga asosan ta'rif beradigan bo'lsak, nikoh shartnomasi - bu nikohlanuvchi shaxslar yoki er-xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) nikoh bekor qilingan taqdirda ularning mulkiy huquq va majburiyatlarini belgilovchi kelishuv hisoblanadi. Shuningdek, ta'kidlab o'tish joiz-ki, nikoh shartnomasi yozma shaklda tuziladi, unda taraflarning huquq va majburiyatlari belgilanadi hamda eng asosiysi nikoh shartnomasi taraflarning erk-irodasiga asoslanadi, ya'ni ikki taraf ham ushbu shartnomani tuzilishiga rozi bo'lishi kerak. Lekin nikoh shartnomasi oddiy fuqarolik-huquqiy shartnomalardan farq qiladi. Misol uchun, nikoh shartnomasi faqat mulkiy munosabatlarni tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 31-moddasiga ko'ra, nikoh shartnomasi er-xotinning shaxsiy nomulkiy munosabatlarini tartibga sola olmaydi. Keyingisi, nikoh shartnomasi majburiy notarial tasdiqlashni talab qiladi. Oila kodeksining 30-moddasi 3-qismida nikoh shartnomasi yozma shaklda tuzilishi va notarial tartibda tasdiqlanishi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, yana bir xususiyati nikoh shartnomasi nikohdan oldin ham nikohdan keyin ham tuzilishi mumki, lekin nikohdan oldin tuzilgan shartnoma, nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab kuchga kiradi. Xalqaro xususiy huquqda, bu kabi nikoh shartnomalar:

- nikohgacha tuzilgan shartnomalar (prenuptial agreement);
- nikoh paytida tuzilgan shartnomalar (postnuptial agreement) deyiladi.⁵

Xalqaro xususiy huquqda nikoh shartnomasi masalalarini tartibga solishga qaratilgan bir nechta muhim konvensiyalarga qabul qilingan bo'lib, ulardan biri, "Nikohni o'tkazish hamda uning haqiqiylikini tan olish to'g'risida"gi 1978-yil 14-mart sanasida qabul qilingan Gaaga konvensiyasida nikoh shartnomasi masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Bu konvensiya er-xotonga nikoh shartnomasida quyidagi qonunlardan birini tanlash huquqini bergan:

- tanlash vaqtida er yoki xotin qaysi davlat fuqarosi bo'lsa, shu davlatning qonuni;
- tanlash vaqtida er yoki xotin qaysi davlatda doimiy yashasa, shu davlatni qonuni;
- nikohga kirgandan so'ng er yoki xotin qaysi davlatda birinchi marta doimiy yashash joyini olgan bo'lsa, shu davlat qonuni.

Shuningdek, 6-moddasida er-xotonga nikoh davrida ham qo'llaniladigan qonunni o'zgartirish imkonini bergan. Bu nikoh shartnomasini moslashuvchan tarzda tartibga solish imkoniyatini beradi.

Shu asosda quyidagi kollizion tushunchalarga ta'rif yuzaga keladi: Nikoh shartnomasi bilan bog'liq munosabatlarda quyidagi kollizion formula qo'llanilishi mumkin:

⁴ The Code Napoleon; or The French Civil Code. Literally translated from the original and official edition, published at Paris, In 1804. By a Barrister of the Inner Temple. <https://data.globalcit.eu/NationalDB/docs/Civil%20Code%201804%20EN.pdf>

⁵ MARRIAGE CONTRACT IN THE RUSSIAN FEDERATION AND FOREIGN COUNTRIES A.A. Obukhov, Graduate Student Supervisor: S.S. Zhelonkin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor St. Petersburg State University of Economics (Russia, St. Petersburg) DOI: 10.24411/2500-1000-2020-11056

- Lex voluntatis (tomonlar tanlagan huquq). Shartnoma tomonlari qaysi davlat qonuni qo'llanishini erkin tanlashlari mumkin.
- Lex loci celebrationis (nikoh tuzilgan joy qonuni). Nikoh qaysi davlatda tuzilgan bo'lsa, o'sha davlat qonuni qo'llaniladi.
- Lex domicilii (doimiy yashash joyi qonuni). Tomonlarning doimiy yashash joyi qonuni qo'llaniladi.
- Lex patriae (milliy qonun). Tomonlarning fuqaroligi asosida qo'llaniladigan qonun.
- Lex matrimonii (nikoh qonuni). Nikoh munosabatlarini tartibga soluvchi qonun.⁶

Qo'shimcha qilib kollizion normalar tushunchasiga ta'rif bersak, kollizion norma - bu chet el elementi mavjud bo'lgan huquqiy munosabatga qaysi davlat qonunini qo'llash kerakligini ko'rsatuvchi norma hisoblanadi.⁷ Xalqaro xususiy huquqda nikoh shartnomasi bilan bog'liq munosabatlarga qaysi davlat qonuni qo'llanilishi muhim masala hisoblanadi. Bu masala kollizion normalar orqali hal etiladi. 1978-yildagi Gaaga konvensiyasining 4-moddasi ham shunga o'xshash yechimni taklif qiladi: tomonlar nikoh shartnomasi bilan bog'liq munosabatlarga qaysi davlat qonuni qo'llanishini erkin tanlay oladi.

O'zbekiston Respublikasida chet el elementi bilan murakkablashgan nikoh shartnomasi masalalarini hal qilishda Fuqarolik kodeksining xalqaro xususiy huquqqa bag'ishlangan 70-bobi (1158-1167-moddalar) qo'llaniladi. Kodeksning 1158-moddasi xalqaro shartnomalarning ustunligini ta'kidlaydi, bu yuqorida keltirilgan 7-moddaning takroridir. O'zbekiston Fuqarolik kodeksi er-xotinning mulkiy munosabatlariga to'g'ridan-to'g'ri tegishli maxsus kollizion qoidani o'rnatmagan. Shuning uchun, umumiy kollizion qoidalar qo'llaniladi. Kodeksning 1159-moddasi bitim shaklini tartibga soladi: "bitim va boshqa huquq vujudga keltiradigan harakatlarning shakli ularni sodir etish joyi qonuni bilan belgilanadi" (lex loci actus tamoyili). Biroq, xuddi shu moddaning ikkinchi qismi alternativini nazarda tutad, unga asosan: "agar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari chet elda bitim tuzayotgan bo'lsa, bunday bitim O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan shaklda tuzilishi ham mumkin". Shartnoma mazmuni masalasida Fuqarolik kodeksining 1162-moddasi qo'llaniladi: "shartnoma tomonlar tanlagan qonunga bo'ysunadi". Bu avtonomiya tamoyilini (lex voluntatis) tan oladi. Agar tomonlar qonunni tanlamagan bo'lsa, Kodeksning 1163-moddasi eng yaqin aloqa tamoyilini qo'llaydi: "Agar shartnoma tomonlari qonunni tanlamagan bo'lsa, shartnoma barcha vaziyatlarni hisobga olgan holda shartnoma bilan eng yaqin aloqaga ega bo'lgan mamlakat qonuniga bo'ysunadi". Shuningdek, chet elda tuzilgan nikoh shartnomasi O'zbekistonda tan olinishi uchun bir necha shart bajarilishi kerak. Birinchidan, shartnoma tuzilgan davlatda u qonuniy va haqiqiy bo'lishi lozim. Ikkinchidan, shartnomani tuzish tartibi o'sha davlat qonunchiligiga mos kelishi kerak. Uchinchidan, va eng muhimi, shartnoma O'zbekiston jamoat tartibiga zid kelmasligi shart. O'zbekiston Fuqarolik kodeksining 1167-moddasi jamoat tartibi tushunchasini belgilaydi: "Agar chet

⁶ Nishant Chaturvedi, V year student & Sugandha Nayak, IV year student. Marriage & Matrimonial Causes in Private International Law: Issues in Common Law Countries.

⁷ Cheshire & North. P. 745.

el qonuni normalarning qo'llanilishi O'zbekiston Respublikasining jamoat tartibiga zid kelsa, bunda ular qo'llanilmaydi. Bunday holda O'zbekiston Respublikasining qonuni qo'llaniladi".

Amalda, chet elda tuzilgan nikoh shartnomasi O'zbekistonda tan olinishi uchun qo'shimcha rasmiyatchiliklar talab etilishi mumkin. Masalan, shartnoma apostil bilan tasdiqlanishi kerak bo'lishi mumkin. O'zbekiston 1961-yilgi "Chet el rasmiy hujjatlarining qonuniyligini tasdiqlovchi talablarni bekor qilish to'g'risida"gi Gaaga konvensiyasiga qo'shilgan, shuning uchun konvensiya a'zosi davlatlarda tuzilgan hujjatlar uchun apostil kifoya qiladi. Yana muhim masala, O'zbekiston sudlarida chet el elementi bilan murakkablashgan nikoh shartnomasi bo'yicha nizolar kam ko'riladi. Bu bir necha omillar bilan tushuntiriladi: birinchidan, nikoh shartnomasi amaliyoti umumiy past darajada; ikkinchidan, sudyalar xalqaro xususiy huquq masalalarida yetarli tajribaga ega emas. Sud amaliyotida eng keng tarqalgan muammolardan biri - qaysi davlat qonuni qo'llanishi kerakligini to'g'ri aniqlash. Ko'pincha sudlar O'zbekiston qonunini avtomatik ravishda qo'llashga moyil, ammo bu doim ham to'g'ri emas. Agar shartnomada qonun tanlash shartlari mavjud bo'lsa, sudlar bu tanlovni hurmat qilishlari kerak, agar u O'zbekiston jamoat tartibiga zid kelmasa. Yana bir muammo - chet el qonunining mazmunini aniqlash. Fuqarolik kodeksining 1160-moddasi quyidagicha ta'rif beradi: «Chet el qonuni normalarining mazmuni O'zbekiston Respublikasi sudlari va boshqa vakolatli organlar tomonidan tegishli chet el qonunining matniga, uning rasmiy talqiniga va qo'llanilishiga muvofiq aniqlanadi». Amalda, chet el qonunining matnini va talqinini topish qiyin bo'lishi

Shuningdek, ta'kidlab o'tish joiz-ki, MDH davlatlari doirasida ham bir qator ko'p tomonlama shartnomalar tuzilgan, ulardan biri Minsk konvensiyasi (1993 yil) huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida. Konvensiyaning 27-moddasi er-xotinning mulkiy munosabatlarini tartibga soladi: "Er-xotinning mulkiy munosabatlari ularning umumiy fuqaroligi qonuni bilan, agar umumiy fuqarolik yo'q bo'lsa - umumiy doimiy yashash joyi qonuni bilan belgilanadi." Shuningdek, yana bir hujjat, Kishinev konvensiyasi (2002 yil) Minsk konvensiyasini yangilangan varianti hisoblanadi va shunga o'xshash qoidalarni o'z ichiga oladi. Bu shartnomalar O'zbekiston uchun juda ahamiyatli, chunki MDH davlatlari bilan oilaviy-nikoh munosabatlari keng tarqalgan hamda ushbu konvensiyalar bevosita nikoh munosabatlarida masalalarni hal qilishda davlatlarning bir-biriga ko'magi uchun samarali tizimdir.

Endi xorijiy mamlakatlarda nikoh shartnomasining huquqiy o'rniga to'xtalib o'tsak, Germaniya Fuqarolik kodeksi (Bürgerliches Gesetzbuch - BGB) ning 1408-1414-moddalari nikoh shartnomasi institutini tartibga soladi. Nemis qonunchiligi er-xotingga keng ko'lamli shartnoma erkinligini beradi. BGB ning 1410-moddasiga ko'ra, nikoh shartnomasi tuzilishida har ikki er-xotinning shaxsan ishtirok etishi majburiy va notarius shartnomani tasdiqdan oldin tomonlarni huquqiy oqibatlar haqida batafsil ma'lumotlantirishi shart.⁸ Qo'shimcha qilib, Niderlandiyani misol qilsak, u 1978-yilgi Gaaga konvensiyasini ratifikatsiya qilgan birinchi davlatlardan biri bo'lib, konvensiya

⁸ <https://lexmea.de/en/gesetz/bgb/1410>

1992-yil 1-sentyabrda kuchga kirgan. Niderlandiya Fuqarolik kodeksining 116-moddasi nikoh shartnomasi registri to'g'risidagi qoidalarni belgilaydi. Agar er-xotinning mulki rejimi chet el qonuni bilan tartibga solinsa, ular bu haqda notarial akti maxsus registrga kiritish imkoniyatiga ega.

Xalqaro nikoh shartnomasi zamonaviy xalqaro xususiy huquqning eng murakkab va dinamik sohalaridan biri hisoblanadi. Globallashtirish sharoitida turli mamlakatlar fuqarolari o'rtasidagi nikohlar soni ortib borayotgan bir paytda, nikoh shartnomalarining xalqaro tan olinishi va ijrosi muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, quyidagi takliflarni keltirishimiz mumkin: birinchidan, nikoh shartnomasi instituti xalqaro xususiy huquqda muhim o'rin tutadi va chet el elementi mavjud bo'lganda maxsus kollizion qoidalar qo'llanilishi zarur. 1978-yilgi Gaaga konvensiyasi ushbu sohada yetakchi xalqaro-huquqiy hujjat bo'lib, avtonomiya tamoyilini (er-xotinning qonuni tanlash huquqi) va subsidiar kollizion qoidalarni belgilaydi.

Ammo O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik yoki oila kodeksida ushbu mavzu keltirilmagan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga er-xotinning mulkiy munosabatlariga, jumladan nikoh shartnomasi masalalariga tegishli maxsus kollizion qoidalar kiritish zarur.

Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nikoh shartnomasi instituti 1998-yildan beri mavjud va Oila kodeksining 29-33-moddalari bilan tartibga solinadi. Biroq, chet el elementi bilan murakkablashgan nikoh shartnomalari bo'yicha maxsus kollizion qoidalar yetarli emas.

Fuqarolik kodeksining umumiy xalqaro xususiy huquq qoidalari (1158-1167-moddalar) qo'llaniladi, ammo ular nikoh shartnomasi sohasini to'liq hisobga olmaydi. Shuningdek, O'zbekistonda nikoh shartnomasi amaliyoti juda past darajada va chet el elementi bilan murakkablashgan holatlar yanada kam uchraydi. Sud amaliyoti ham to'liq shakllanmagan.

Bu qonunchilikni takomillashtirish, huquqiy ma'lumot berish va yuridik madaniyatni oshirish zarurligini ko'rsatadi. Yana bir xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha taklif, qo'shni Markaziy Osiyo davlatlari (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston) bilan oilaviy-huquqiy masalalar, jumladan nikoh shartnomasi bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish. Mintaqaviy konvensiya yoki ikki tomonlama shartnomalar tuzish imkoniyatini ko'rib chiqish amaliyotga samarali o'zgarishlarga sabab bo'ladi va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. <https://lex.uz/docs/-104720?ONDATE=14.03.2022&ONDATE2=18.05.2022&action=compare2>.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 2-qism <https://lex.uz/docs/-180552>

3. Rustambekov I. va boshqalar. Xalqaro xususiy huquq: Darslik. Toshkent: TDYU, 2019. 354 bet.

4. Lutska H., Babetska I., Shevchuk L. et al. Marriage Contract and Agreement on Division of Joint Property of Spouses. International Journal of Management, 2020, Vol. 11(6), pp. 123-131.

5. Convention of 14 March 1978 on Celebration and Recognition of the Validity of Marriages <https://www.hcch.net/en/instruments/conventions/full-text/?cid=88>

6. Convention on Legal Aid and Legal Relations in civil, family and criminal cases. Adopted in Minsk on 22 January 1993. 263 p. <https://www.unhcr.org/sites/default/files/legacy-pdf/4de4edc69.pdf>

7. Andrew T. Bierkan, Charles P. Sherman, Emile Stocquart, Jur. The Yale Law Journal, Vol. 16, No. 5 (Mar., 1907), pp. 303-327;

8. The Code Napoleon; or The French Civil Code. Literally translated from the original and official edition, published at Paris, In 1804. By a Barrister of the Inner Temple;

9. MARRIAGE CONTRACT IN THE RUSSIAN FEDERATION AND FOREIGN COUNTRIES A.A. Obukhov, Graduate Student Supervisor: S.S. Zhelonkin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor St. Petersburg State University of Economics (Russia, St. Petersburg) DOI: 10.24411/2500-1000-2020-11056;

10. Nishant Chaturvedi, V year student & Sugandha Nayak, IV year student. Marriage & Matrimonial Causes in Private International Law: Issues in Common Law Countries;

11. Cheshire & North. P. 745;

12. <https://oyina.uz/uz/posts/23525>

13. <https://avalon.law.yale.edu/ancient/hamframe.asp>

14. <https://lexmea.de/en/gesetz/bgb/1410>

15.

https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2013/01/mutual-legal-assistance-and-other-forms-of-cooperation-between-law-enforcement-agencies_c9a53cb6/7ebabfee-en.pdf